

**O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan “Yashil makon”  
umummilliy loyihasi doirasida 2024 yilda amalga  
oshirilayotgan ishlar hamda 2025 yilda amalga oshiradigan  
asosiy ko‘rsatkichlar to‘g‘risida ma‘lumot**

2024 yilning 21 oktyabr kuni Muhtaram Prezidentimiz raisligida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Xususan, respublika hududlarida 2024 yil kuz mavsumida ko'kalamzorlashtirish, manzarali, mevali daraxt va butalar ko'chatlarini ekish tadbirlarini tizimli va uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 7 martdagi **144-F-son Farmoyishi** qabul qilindi.

**“Yashil makon” umummilliy loyihasi** doirasidagi tadbirlarni izchil davom ettirish maqsadida, 2024 yil kuz mavsumida **80 mln tup** daraxt va buta ko'chatlari ekilishi rejalashtirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida **2024 yil kuzgi ko'chat ekish mavsumida** Respublika bo'yicha **85.6 mln tup (107 foiz)** daraxt ko'chatlari ekildi.

**Ikkinchidan**, o'rmon fondi yerlarida **4 mln 659 ming** dona hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos daraxt va buta ko'chatlarini ekish belgilangan bo'lib, bugungi kungacha **4 mln 950.4 ming (rejaga nisbatan 106 %)** dona daraxt va buta ko'chatlar ekish ishlari amalga oshirildi.

**Ma'lumot uchun:** Qoraqalpog'iston Respublikasida 513.3 ming, Andijon viloyatida 17 ming, Buxoro viloyatida 638 ming, Jizzax viloyatida 250 ming, Qashqadaryo viloyatida 117.8 ming, Navoiy viloyatida 1759.1 ming, Namangan viloyatida 112,8 ming, Samarqand viloyatida 384.6 ming, Surxondaryo viloyatida 597.6 ming, Sirdaryo viloyatida 80.6 ming, Toshkent viloyatida 272.9 ming, Farg'ona viloyatida

166.6 ming, Xorazm viloyatida 40 ming, dona **o'rmon xo'jaliklari tomonidan ko'chat va qalamchalar ekildi.**

**Uchinchidan,** Farmoyishga asosan o'rmon xo'jaliklari tomonidan **17 mln. dona** ko'chatlarni yetkazib berish topshirig'i belgilangan.

Bugungi kunda o'rmon xo'jaliklari tomonidan **17 mln. dona (100 foiz)** ko'chatlar talabdan kelib chiqqan holda yetkazib berildi.

**To'rtinchidan,** maktabgacha ta'lim muassasalariga (bog'chalarga) joriy yil kuzgi mavsumda **110,8 ming dona** ko'chatlar yetkazib berish rejalashtirilgan bo'lib, **104,1 ming dona (94 foiz)** ko'chatlar yetkazib berildi.

**Beshinchidan,** "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hududlarda ekologik holatni yanada yaxshilash maqsadida **jami 347 gektar** maydonda **"yashil bog'lar"**ni barpo etish belgilangan.

(*Izoh: Joriy yilda 30.12.2021 yildagi PF-46-son Farmonning 1-ilovasiga ko'ra 347,1 gektar maydonda "yashil bog'lar" barpo etish belgilangan*)

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida jami **134 ta** mahalliy kengashlarning **"yashil bog'lar"** barpo etish maqsadida yer **ajratish bo'yicha tegishli qarorlari** qabul qilinib, "Yashilloyiha" loyihalash instituti tomonidan **loyiha-smeta** hujjatlari ishlab chiqilib, **ekspertizadan o'tkazildi.**

Hududlarda **"yashil bog'lar"** barpo etish ishlari joriy yil kuzgi ko'chat ekish mavsumda **to'liq yakuniga yetkazildi, 1 yildan 3 yilga** qadar parvarishlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 22 sentyabrdagi 604-F/9-sonli Farmoyishi hamda 2023 yil 10 noyabrdagi 26/33-360-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida "Toshkent-Samarqand" temir yo'li atrofida ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi, jumladan Sirdaryo viloyati hududidan o'tgan temir yo'l atrofida 91,9 gektar yer maydonida, Jizzax viloyati hududidan o'tgan temir yo'l atrofida 121,4 gektar yer maydonida ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga

oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 26 martdagi "Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan **"Mening bog'im"** loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 156-son qaroriga asosan **"Ochiq byudjet"** axborot portali orqali saralash jarayonlari o'tkazilib, **"Mening bog'im"** loyihasi doirasida **49 mlrd so'm** mablag'lar hisobiga mahallalarda **215 ta "yashil bog"** va **"yashil jamoat parklari"**ni tashkil etish bo'yicha g'olib loyihalar aniqlandi.

**"Mening bog'im"** loyihasi tadbirlarini samarali amalga oshirish maqsadida 2024 yilda mahallalarda **215 ta "yashil bog"** va **"yashil jamoat parklari"**ni barpo etishda, O'rmon xo'jaligi agentligi tizimidagi tashkilotlar pudratchi sifatida belgilandi hamda buyurtmachi bilan, istisno tariqasida, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishga rozilik berildi.

Shunga asosan, O'rmon xo'jaligi agentligi tizimidagi tashkilot va o'rmon xo'jaliklari belgilangan tartibga ko'ra Viloyat ekologiya boshqarmalari bilan shartnoma tuzib, **"Mening bog'im"** loyihasi doirasida mahallalarda 215 ta **"yashil bog"** va **"yashil jamoat parklari"** o'rmon xo'jaliklari tomonidan barpo etildi.

### **I. 2025 yil uchun asosiy ko'rsatkichlar**

**1.** Respublikada yashillik darajasi 2030 yilga borib **30 foizga** yetkaziladi (har yili **200 million** tup daraxt va buta ko'chatlari ekiladi), 2025 yilda esa **14,1 foizga** yetkaziladi.

**2.** 2025 yil yakuniga qadar **257 ta "yashil bog"**lar barpo etilib, ularning soni **701 taga** yetkaziladi;

**3. Respublika** vazirliklari va idoralari rahbarlari tuman (shahar)larda maydoni **50 sotixdan** kam bo'lmagan vazirlik va idoralar "yashil bog'lari"ni tashkil etadi.

**4. 10 ming gektar** yerda yovvoyi dorivor va ozuqabop o'simliklar yetishtirish bo'yicha plantatsiyalar tashkil qilinadi va ro'yxatga olinadi.

**5. 450 ming** daraxtlar xatlovdan o'tkazilib, raqamlashtiriladi.

### **O'rmon bo'yicha:**

1. O'rmon bilan qoplanish darajasi yil yakuniga qadar **10,7 foizga**, ya'ni **4,1 mln gektarga** yetkaziladi;

2. Orol dengizi qurigan tubida **200 ming gektar** "yashil qoplama"lar barpo etiladi va jami maydoni **2,1 mln. gektarga** yetadi.

3. Cho'l, tog' va tog'oldi hududlarida **2,7 ming gektar** himoya (ixota) o'rmonzorlari barpo etiladi;

4. O'rmon xo'jaliklarida 1,5 ming tonna urug' hamda 123 mln tup nihol va ko'chatlar tayyorlanadi;

5. 2025 yilda **5 886 gektar** dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklar plantatsiyalari barpo etiladi.

6. **7 ming gektar** foydalanilmayotgan o'rmon fondi yerlari o'zlashtiriladi.

7. Koreya tajribasi asosida suvsizlikka chidamli yopiq ildizli konteynerlarda **2 mln tup** ko'chat yetishtiriladi;

## **II. Amalga oshiriladigan tizimli ishlar**

1. Daraxt va butalar seleksiyasiga ixtisoslashtirilgan "in vitro" laboratoriyalari va pitomniklarni tashkil etish uchun **30 million dollar** miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etiladi.

Jalb etilgan mablag'ning bir qismi hisobiga Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green university) qoshida ilmiy-tadqiqot maqsadlarda "in vitro" laboratoriyasi va pitomnik, qolgan qismi - xususiy "in vitro" laboratoriyalari va pitomniklar tashkil etishga yo'naltiriladi, bunda tadbirkorlar yetishtiradigan ko'chatlarni davlat tomonidan xarid qilish kafolati beriladi.

Natijada har bir hududda kamida **10 gektardan** iborat "in vitro" laboratoriyalari tashkil etiladi va har yili --- dona ko'chat yetishtiriladi.

## **III. Tayyorlanadigan qonunchilik hujjatlari.**

1. O'zbekiston Respublikasining "**O'rmon kodeksi**" loyihasini ishlab chiqiladi.

2. "**Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish va ko'chirib o'tkazish tizimini tartibga solish to'g'risida**"gi Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqiladi.

3. Yana **5 ta** qonun loyihasi va **6 ta** boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi tayyorlanadi

## **V. Boshqa vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar**

### **1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:**

- barcha tuman va shaharda “Mening bog‘im” loyihasi doirasida “yashil bog”lar maydonini gektardan hamda “yashil jamoat park”larini maydoni 0,5 gektardan kam bo‘lmagan miqdorda barpo etadi;

Nukus, Arnasoy, Qorako‘l, Muborak tumanida 2025 yilda suvsiz va sho‘rga chidamli galofit o‘simliklardan (saksovul, cherkez, teres-ken, chogon, izen, qora-buroq) iborat **1 tadan**, jami 4 ta galofit bog‘lari barpo qiladi;

G‘allaorol tumanida qor-yomg‘ir suvini yig‘uvchi **10 ta geomembrana** o‘rnatib, daraxtlarni sug‘orish tizimi yaratiladi;

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Suxondaryo va Xorazm viloyatlarining 250 ming gektar** cho‘l hududlarida suv talab etmaydigan saksovul, qandim, cherkez urug‘ini uchunchisiz uchish vositalari orqali ekish ishlari amalga oshiriladi;

2025 yil bahor mavsumidan boshlab **14 ta** (Uzun, Sariosiyo, Boysun, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi, Urgut, Qo‘shrabot, Zomin, Baxmal, G‘allaorol, Forish, Pop) tumanidagi tog‘ va adir qiyaliklaridagi **500 ga maydonda** “terassa” usulida daraxt ekish ishlari boshlanadi;